

BIR UMR TA'ZIMDAMAN
(Mazluma Asqarova tavalludining 100 yilligiga bag'ishlanadi)

Muyassar Saparniyazova,
filologiya fanlari doktori
(Alfraganus universiteti)
m.saparniyazova@afu.uz

Mazluma Asqarova hayot bo'lganlarida bu yil 100 yoshga to'lgan bo'lardilar. Mazluma Asqarovaning hayot yo'li hammamiz uchun ibrat maktabi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Atoqli tilshunos olim S.Karimov ta'kidlaganlaridek, o'zbek tilshunosligi ilmiga qiziqqan biror bir ziyoli yo'qki, olima yozgan asarlarni o'qimagan yoki bu noyob asarlardagi ilmiy-amaliy mulohazalar va tavsiyalardan bahra olmagan bo'lsin.

Mazluma Asqarova haqida so'z ketganda, opani ko'rgan-bilganlar dastavval ularning nihoyatda kamtarinliklari, barchaga birday samimiy va muloyim muomalalarini, hamkasblariga, shogirdlariga mehr-u muruvvatliliklarini hurmat bilan eslashadi. Ulkan daryolar sokin oqadi, deydi dono xalqimiz. Darhaqiqat, ismi-sharifini, ilmiy ishlarini dunyo bilgan, dunyo tan olgan ustozimiz odamlar orasida sokin daryosifat jimgina, kamtargina yurishni odat qilgan, yuksak ma'naviyatli inson edilar.

Mazluma Asqarovaning ilmiy faoliyati juda keng qamrovni o'z ichiga oladi. Opa tomonidan chop etilgan ishlarning mazmun mundarijasiga qaraydigan bo'lsak, o'zbek tilshunosligining turli sohalarini, jumladan, so'z turkumlari – olmosh, son, bog'lovchilar, fe'l shakllari; qo'shma gap sintaksisi muammolari, ona tili o'qitish samaradorligini oshirish va o'zbek tili metodikasi muammolari; o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish masalalari; matn va uning sintaktik xususiyatlari kabi masalalar opaning juda keng ilmiy mushohada sohibi ekanligidan dalolat beradi. Xususan, olima tomonidan o'rta qo'yilgan xalq og'zaki ijodi asarlarining lingvistik xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan turkum ishlarni alohida ta'kidlash mumkin. Ular orqali bugun dunyo fanida *lingvofolkloristika* deb nomlanayotgan yangi soha olima tomonidan o'tgan asrning oxirgi choragidayoq o'zbek tilshunosligida bir maktab o'laroq shakllantirilgan deb barilla aytish mumkin. Mazluma Asqarova rahbarligida "Alpomish" dostonida sintaktik aloqa vositalari" (R.Rasulov), "O'zbek tilida to'y marosimi nomlarining onomasiologik tadqiqi" (Z.Husainova), "O'zbek xalq topishmoqlarining leksik-semantik xususiyatlari" (J.Abdullayev), "O'zbek xalq qo'shiqlarining leksik-grammatik xususiyatlari" (F.Xayitova), "O'zbek xalq ertaklarida aniqllovchilar" (N.Dosanov), "O'zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari" (M.Saparniyazova) kabi ishlar olimaning til ilmining ulkan sinchisi ekanligidan dalolat beradi: u tilning ayrim mavhum masalalarini hal etishda xalq og'zaki ijodi asarlari muhim manba ekanligi, ularni o'rganish, ularga tayanish ko'p masalalarning yechimi ekanligini to'g'ri anglay bilgan.

Men mana shunday ulug‘ insonning shogirdi bo‘lganimdan doim faxrlanaman, ular sabab “ustoz ko‘rgan shogird” maqomiga ega bo‘ldim. Ustozim bilan bog‘liq bir dunyo xotiralarim borki, ularni yozsam, bir kitob bo‘lgulik. 1991-yildan kafedrada faoliyatimni boshlagan bo‘lsam, har doim ustoz bilan yaqindan muloqot qilish, ilm o‘rganish, ulardan hayotiy tajriba orttirish baxtiga musharraf bo‘lganman. Mazluma opaning darslarini kuzatib “tanglayim ko‘tarilgan”. Har bir darsni muloyim va yoqimli ovozda, bir daqiqasini ham uvol qilmasdan g‘ayrat bilan o‘tishlarini, til qoidalarini dalillash uchun bir-biridan hikmatli, quyma misollarni keltirishlarini ulardan ta‘lim olgan har bir sobiq talaba yaxshi eslaydi. “Tuxumning oqini oqlab, sarig‘ini saqlab yeng”; “Yaxshi so‘z ham sadaqadir” kabi yuzlab misollar opaning hikmatlariga aylangan.

Mazluma opa bilan hamsuhbat bo‘lganlar ularning yuklamalarga boy chiroyli lutflarini yaxshi eslashadi:gina, ...mikin, ...ngiz-chi, ...sizmi, ...samikin shakllari bilan aytilgan gaplari hech qachon yerda qolmagan. Buyruq maylini deyarli ishlatmasdilar. Darsda ham biror qoidani tayyor holda aytib qo‘ya qolmasdilar. Oldin hikmatlarga boy misollaridan o‘rtaga tashlab, muhokama bilan auditoriyani “ari ini”ga bir aylantirib olardilar-da, keyin qoidaga kelganda yuqoridagi yuklamalarga boy nutqlari bilan yana muhokamani avjga chiqarardilar. Oxirida, talabalarning o‘ziga xulosa chiqartirgach, Konfutsiychasiga “O‘zim bajardim – tushundim” degich yakun yasardilar. Mazluma Asqarova 86 yoshgacha dars bergan bo‘lsalar, auditoriyasini shu zaylda boshqardi, stulda o‘tirib dars o‘tish ularga begona edi.

Ustozim yana bir yaxshi xislatlaridan biri odamshunoslik, insonshunoslik edi. Bir qarashda, yoki bir hamsuhbat bo‘lishlari bilanoq, qarshisidagi insonning kimligini bilib olardilar-u, xulosani ichida saqlardilar. Olimlikdagi sinchilikning donolikka aylanganining, tilshunos S.Dovlatov aytmoqchi “insonning 90 foizini til tashkil etishi”ning isbotidir balki... Ammo hech qachon biror kishi haqida yomon gap aytmadilar, hammaga birday muloyim, samimiy munosabatda bo‘lardilar.

Inson qaysi ishga qo‘l urmasin, uni sidqidildan, chin ko‘ngildan bajarish lozimligini uqtirardilar. Darsni buyuk ibodat kabi ado etardilar.

Dunyo turkologiyasining oltin fondidan joy olgan ilmiy tadqiqotlar yaratganligi jahondagi taniqli tilshunoslar tomonidan e‘tirof etilgan, asarlari jahonning bir qator mashhur kutubxonalarida saqlanayotgan ustozim bir umr kibr nimaligini bilmadilar, kamtarlik to‘nini yechmasdan, shahar ulovida ishga qatnashni o‘zlariga odat qildilar.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Rossiya Federatsiyasi ta‘lim akademiyasining akademigi, filologiya fanlari doktori, professor Mazluma Asqarovaning ilmiy merosi bugun bir qator tadqiqotlarga masala bo‘la oladi. Ularni ilmiy tadqiq qilish fanimiz ertasi uchun zarurdir. Insoniy fazilatlarini yod etish esa ibrat maktabidir.

Ustozning ruhlari shod, makonlari firdavs bog‘lari bo‘lsin